

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



I
BRENDING
N
O
V
MARKETING
T
BIZNES
I
Y
S
RAQAMLI MARKETING
V
D
ELEKTRON TIJORAT



№3-SON

2025-YIL, MART

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



Member of
Crossref

OPEN  ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 670 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 28-martda ruxsat etildi

MUNDARIJA

OZIQ-OVQAT MAXSULOTLARI EKSPORTINI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH YO‘LLARI	9
Yunusov Baxodir Marisovich	
ENHANCING EXPORT STRATEGIES FOR LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES.....	22
Djurabaev Otabek Djurabayevich	
BALIQCILIKDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBI VA ICHKI NAZORATINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	29
Dusmurotov Radjabbay Davlatbayevich, Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI	37
Egamshukurov Zayniddin Sodikovich	
KORXONA MAHSULOTLARI ISTE‘MOLCHILARI MOTIVATSIYASIDA CHEKLI ALMASHTIRISH NORMASI MASALALARI	45
Jalilov Jamshid G‘anijonovich	
MINTAQADA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH HAMDA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGINI OSHIRISHDA TURIZM INFRATUZILMASI ROLINI BAHOLASH.....	52
Jumaniyazova Sharifa Rashidovna	
DIGITAL MARKETING TOOLS AND BUSINESS DEVELOPMENT STRATEGIES	61
Khudoyarova Ziyoda Maratovna, Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH NAZARIY ASOSLARI VA XORIJIY TAJRIBALARI.....	68
Mirazimova Zulfiya	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA IT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MOHIYATI.....	79
Musirmanov Shohboz Usmon o‘g‘li	
AHOLINING TURMUSH DARAJASI VA FARAVONLIGINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI VA DINAMIKASI	86
Muxamedova Muslima Maxmudovna	
DEVELOPMENT STRATEGIES FOR GLOBAL COMPANIES IN CURRENT CONDITIONS.....	96
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI.....	104
Qurbonov Alisher Boboqulovich	

ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SHAROITIDA SUG'URTA KOMPANIYALARI UCHUN SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARI	110
Rashidova Dildora Rasul qizi	
ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH	116
Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna	
TELEKOMMUNIKATSION VOSITALAR ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINING INNOVASION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	122
Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna	
KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	130
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
KO'P O'LCHOVLI KAMBAG'ALLIK INDEKSINI HISOBLASH BO'YICHA ALKIRE-FOSTER USULI VA TAVSIYALARI	140
Urazbayev Raxmatjon Otajanovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI HAMDA EKOLOGIK, IJTIMOY VA BOSHQARUVNING INVESTITSİYALAR BILAN INTEGRATSIYASI	151
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA AGROSANOAT MINTAQAVIY-IQTISODIY MAJMUASI RIVOJLANISH DINAMIKASINI BAHOLASH	161
Bekchanov Xalmurza Tursinbayevich	
“MAHALLA YETTILIGI” TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IJTIMOY AHAMIYATI	172
Imomov Jamshidxon Odilovich, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi, Islomova Dilrabo Salomovna	
CHAKANA SAVDODA MARKETING VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	194
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li	
RAQOBAT SHAROITIDA OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	200
Nishanbaev Behzod Qahramaonjon o'g'li, Saidov Mash'al Samadovich	
INFLYATSIYA VA MAKROIQTISODIY BARQARORLIK O'RTASIDAGI MUVOZANAT: NAZARIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIK YO'NALISHLAR	210
Baratov Diyorbek Fazliddin o'g'li	
SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MOHIYATI.....	218
Rajabova Mohichehra Abduxoligovna	

KICHIK BIZNESDA INNOVATSION MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	227
Salayev Jasurbek Komilovich	
OLIY TA‘LIM TASHKILOTLARIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA KADRLARLAR TAYYORLASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	237
Ahmedova Nigora Temur qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ КЛАСТЕРИЗАЦИИ.....	248
Ахмедова Мадина Шухрат кизи	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ КЛИЕНТСКОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	258
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Маннабова Хулкар Фарход кизи	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ	267
Рахимова Тамила Баходур кизи	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI	279
Ibodullaev Abror Axrorovich	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ КЛАСТЕРОВ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	285
Садриддинова Нигора Хусниддиновна	
KIMYO KORXONALARI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA MARKETING STRATEGIYALARINI TANLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI ISHLAB CHIQISH.....	295
Akramov Bo‘ribek Faxriddin o‘g‘li	
PANDEMIYA VA INQIROZLARLARNING IJTIMOIIY SOHALARGA TA‘SIRINI BAXOLASH	304
Jumanov Eshmamat Turdiyevich, Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li, Aslonov Muhammad Tosh o‘g‘li	
QASHQARYO VILOYATINING IQTISODIY O‘SISHINI TA‘MINLASHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O‘ZLASHTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI	311
Azimov Allaberdi O‘rinovich, Begaliyeva Madina Abdusamatovna	
TIJORAT BANKLARI MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI	317
Jumanov Eshmamat Turdiyevich, Aslonov Muhammad Tosh o‘g‘li, Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li	
VARYING FORMS OF LEVERAGE ANALYSIS AND ITS USAGE	324
Abduqodirova Mohinur Anvar qizi	

ROLE OF INSTITUTIONAL FRAMEWORKS IN FACILITATING INDIAN INVESTMENT IN UZBEKISTAN.....	336
Abror Kucharov, Jyoti Meshram	
TRANSPORT TIZIMINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI	344
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	357
Ergashxodjaeva Shaxnoza Jasurovna, Parpiyeva Gulhayo Ravshanbek qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH OMILLARI	366
Jumanov Ruslanbek Bobojonovich	
THE ROLE OF THE PROFESSION OF GUIDE INTERPRETERS IN TODAY'S WORLD	373
Yaxshibayeva Raziya Imanali qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AN'ANAVIY SANOATDA STRATEGIK QARORLAR QABUL QILISHGA TA'SIRI.....	380
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Tyurahanov Shamsitdin Djamshid o'g'li	
AGROSANOAT MAJMUASINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY INFRATUZILMASINING ROLI VA O'RNI.....	389
Sultonov Sirojiddin Normurolovich	
THE ROLE OF THE STATE IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN	396
Olimova Sevara Komil kizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI: DEHQONCHILIKDAGI NOANIQLIKLARNI VA TAVAKKALCHILIKLARNI BARTARAF ETISH	406
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Mo'minov Muslimbek Mirzoxid o'g'li	
DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN BASED ON INNOVATIVE ACTIVITIES.....	416
Mukumova Nargis Nuriddinovna, Nasirov Dilshod Farhadovich, Toshimov Ulugbek Hakimovich	
MOLIYAVIY SAVODXONLIK VA IJTIMOY TARMOQLARNING IQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	424
Eshpulatova Muazzam Barnoyevna	
ICHKI AUDITDA TAHLILIY AMALLARNI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI	435
Maxmudova Sharifa Elmurodovna	
THE ECONOMIC SIGNIFICANCE OF ADALINE NEURAL NETWORKS IN FINANCIAL DECISION-MAKING	445
Mirzayev Shoxrux Normurod o'g'li	

AHOLINING IJTIMOIIY-IQTISODIY TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI	454
Raximov Anvar Norimovich, Annayev Abbos Baxtiyor o‘g‘li	
ULGURJI SAVDO MARKETINGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	460
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
ELEKTR ENERGIYASI UCHUN TARIF REJALARINI LOYIHALASH	470
Samiyev Shohrux Faxriddin o‘g‘li	
TA‘LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	480
Adxamova Komilabonu Ilxom qizi, Saidov Mash‘al Samadovich	
IJTIMOIIY MUHIM OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLAR NARXLARINING KELGUSI TENDENSIYALARINI PROGNOZLASHNI EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH	489
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	
MARKETING VA LOGISTIKA TAMOYILLARI ASOSIDA HUDUDLARDA AGROLOGISTIKA MARKAZLARINI RIVOJLANTIRISH.....	511
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
SANOAT KLASSTERLARINING SHAKLLARI VA KLASSTER SUBYEKTLARINING O‘ZARO KORPARATIV MUNOSABATLARI	522
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
DEHQON BOZORI SAVDOSINING XARIDORLAR TALAB-EHTIYOJINI QONDIRISHDAGI O‘RNI VA ROLI.....	527
Ivatov Irisbek	
QISHLOQ XO‘JALIGINI IXTISOSLASHISHINING INTENSIV RIVOJLANISHNI TA‘MINLASHDAGI AHAMIYATI	535
Saburov Jumanazar Saliyevich	
CHAKANA SAVDO FAOLIYATIDA NEYROMARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH AHAMIYATI	542
Saminjonov Nurilloxon Abdubanno o‘g‘li	
SANOAT KLASSTERLARI – SANOAT SALOHIYATINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHI SIFATIDA	549
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
NEFT VA GAZ RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	555
Xalimov Akmaljon Axmadovich	
OLIY TA‘LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	561
Xusniddinov Yorqinjon Muhiddin o‘g‘li	
APPLE KOMPANIYASINING MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH TAHLILI.....	567
Yaxyoxonov Niyozxo‘ja Baxroil o‘g‘li	

RAQAMLI MARKETINGNING ZAMONAVIY TURIZMGA TA’SIRI	575
Abduvaxidov Abdumalik Maxkamovich	
TOSHKENT SHAHRIDA BOLALAR VA O’SMIRLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINING ASOSIY TAMOYILLAR.....	584
Islomova Dilrabo Salomovna	
O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA BILIM IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH UCHUN USLUBIY YORDAMNI SHAKLLANTIRISH	591
Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich	
OLIY TA’LIM TIZIMINI MIQDOR VA SIFAT KO’RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH MEZONLARI VA KO’RSATKICHLARI.....	602
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi,	
IHTTNING CRAM METODOLOGIYASI ASOSIDA TAHLIL (CHEXIYA TAJRIBASI).....	608
Hakimov Hakimjon Abdullo o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIDA TEXNIK TARTIBGA SOLISH TIZIMIDA SIFAT MENEJMENTIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	615
Raximov Ilyos Muydinovich	
MILLIY MODANING GLOBAL MADANIY VA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA UYG‘UNLIGIGA ASOSLANGAN STRATEGIK MARKETING YONDASHUVI.....	627
Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna	
RESEARCH ON THE EFFECTS OF INTEREST RATE, INFLATION RATE AND GROSS DOMESTIC PRODUCT (GDP) ON THE LEVEL OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT (FDI) INFLOWS (EVIDENCE FROM UZBEKISTAN)	637
Azimov Shakhzod	
OLIY TA’LIM MUASSASALARINING INNOVATSION TA’LIM LOYIHALARI ASOSIDA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	649
Eshov Mansur Po‘latovich	
ENHANCING RETAIL PERFORMANCE: THE ROLE OF ECO-MARKETING STRATEGIES IN ACHIEVING ECONOMIC EFFECTIVENESS.....	663
Zilola Davronova G‘ulomovna	

ICHKI AUDITDA TAHLILIIY AMALLARNI QO‘LLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Maxmudova Sharifa Elmurodovna

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti

E-mail: sharifamaxmudova177@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit jarayonida tahliliy amallardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Tahlil amallari ichki auditorlarga risklarni aniqlash va baholash, ichki nazorat tizimini tekshirish hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta‘minlash imkoniyatini yaratadi. Ushbu maqolada trend tahlili, nisbatlar tahlili, regression tahlil va Benford qonuni tahlili kabi asosiy tahliliy usullar yoritilgan. Shuningdek, ichki audit jarayonida tahliliy amallarni qo‘llash bosqichlari, ularning afzalliklari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan cheklovlar ham ko‘rib chiqiladi. Ichki auditni o‘tkazishda tahliliy amallardan foydalanish natijasida risklarni boshqarish, samaradorlikni oshirish, resurslardan to‘g‘ri foydalanish va strategik maqsadlarga erishish mumkinligi asoslab berilgan. Maqola ichki audit jarayonining yanada samarali va aniq bo‘lishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan tahliliy amallarning ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: tahliliy amallar, ichki audit, ichki nazorat tizimi, xalqaro audit standartlari, moliyaviy hisobot, trend tahlili, nisbatlar tahlili, regression tahlil, Benford Qonuni tahlili.

Аннотация

В данной статье анализируется значимость и эффективность использования аналитических процедур в процессе внутреннего аудита в хозяйствующих субъектах. Аналитические процедуры позволяют внутренним аудиторам выявлять и оценивать риски, проверять систему внутреннего контроля, а также обеспечивать точность и достоверность финансовой отчетности. В статье рассматриваются основные аналитические методы, такие как анализ тенденций, коэффициентный анализ, регрессионный анализ и анализ по закону Бенфорда. Кроме того, исследуются этапы применения аналитических процедур в процессе внутреннего аудита, их преимущества и возможные ограничения. Обоснована возможность управления рисками, повышения эффективности, рационального использования ресурсов и достижения стратегических целей благодаря применению аналитических процедур. Статья раскрывает значимость аналитических методов для обеспечения более эффективного и точного процесса внутреннего аудита.

Ключевые слова: аналитические процедуры, внутренний аудит, система внутреннего контроля, международные аудиторские стандарты, финансовая

отчетность, трендовый анализ, анализ коэффициентов, регрессионный анализ, анализ Закона Бенфорда.

Abstract

This article analyzes the significance and effectiveness of using analytical procedures in the internal audit process of business entities. Analytical procedures enable internal auditors to identify and assess risks, examine the internal control system, and ensure the accuracy and reliability of financial reporting. The article discusses key analytical methods such as trend analysis, ratio analysis, regression analysis, and Benford's Law analysis. Additionally, it explores the stages of applying analytical procedures in internal auditing, their advantages, and potential limitations. The study substantiates the possibility of risk management, efficiency improvement, optimal resource utilization, and achieving strategic goals through analytical procedures. The article highlights the importance of analytical methods in ensuring a more efficient and precise internal audit process.

Keywords: analytical procedures, internal audit, internal control system, international auditing standards, financial reporting, trend analysis, ratio analysis, regression analysis, Benford's Law analysis.

KIRISH

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi va samaradorligini ta'minlashda ichki audit muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki audit jarayonida tahliliy amallardan foydalanish auditorlarga korxona moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish, risklarni aniqlash va baholash, shuningdek, ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu esa korxona faoliyatining shaffofligi va ishonchligini ta'minlashga yordam beradi.

Tahliliy amallar ichki auditning ajralmas qismi bo'lib, ular auditorlik tekshiruvlarini aniq va tezkor o'tkazishda muhim vosita hisoblanadi. Trend tahlili, nisbatlar tahlili, regression tahlil, hamda Benford qonuni tahlili kabi usullar auditorlarga ma'lumotlarni har tomonlama o'rganish, anomaliyalarni aniqlash va potensial xatolarni oldindan ko'rish imkonini beradi. Shu bilan birga, ichki auditda tahliliy amallardan foydalanish korxona faoliyatining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda strategik maqsadlarga erishishda muhim o'rin tutadi.

Ushbu ishda ichki audit jarayonida tahliliy amallardan foydalanishning afzalliklari, ularning qo'llash bosqichlari hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar batafsil o'rganiladi. Bundan tashqari, tahliliy amallarning audit natijalari va boshqaruv qarorlariga ta'siri yoritilib, ularning xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligiga ta'siri tahlil qilinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditorlik tekshiruvini o'tkazishda tahliliy amallardan foydalanish tekshiruv oldiga qo'yilgan maqsadga erishishga yordam beradi. Shunday ekan, savol yuzaga keladi. Tahliliy amal o'zi nima?

Tahliliy amal — bu biror muammo yoki vaziyatni chuqur o'rganish va tahlil qilish jarayoni. U ko'pincha muammoni yanada yaxshi tushunish, sabablarini aniqlash

va yechimlar topish uchun qo'llaniladi. Tahliliy amalning asosiy bosqichlari quyidagilar:

1. Muammoni aniqlash: Tahlil qilishni boshlashdan oldin, muammo yoki vaziyatni aniq belgilash zarur. tahlil jarayoni aniq muammoni belgilashdan boshlanishi lozim, chunki noto'g'ri yoki yuzaki muammo aniqlanganda audit natijalari ham ishonchsiz bo'lishi mumkin. Korxona faoliyatining qaysi jihatlarida kamchiliklar mavjudligini aniqlash va ushbu yo'nalishlarga e'tibor qaratish audit samaradorligini oshiradi.

2. Ma'lumot to'plash: Muammo haqida ma'lumot to'plash, statistiklarni, fikrlarni yoki boshqa manbalarni o'rganish. Muammo bo'yicha muhim statistik ma'lumotlar va boshqa ishonchli manbalar asosida tahliliy jarayon olib boriladi. Ichki auditor nafaqat hisobotlarni ko'rib chiqishi, balki tashkilotdagi xodimlarning fikrlarini ham inobatga olishi lozim. Bu esa tahlilning to'liq va chuqur bo'lishini ta'minlaydi.

3. Tahlil qilish: Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni bir-biri bilan bog'lash. Olingan ma'lumotlar turli tahliliy usullar yordamida chuqur o'rganiladi va mavjud bog'liqliklar aniqlanadi. Ichki audit jarayonida trend tahlili, nisbatlar tahlili, regressiya tahlili va boshqa zamonaviy usullardan foydalanish natijalarning ishonchliligini oshiradi. Ushbu bosqichda tahliliy jarayonning aniq metodologiyasi ishlab chiqilib, auditor tomonidan asosli qarorlar qabul qilinishi zarur.

4. Natijalarni ishlab chiqish: Tahlil natijalaridan kelib chiqib, xulosalar chiqarish va yechimlar taklif qilish. Tahlil natijalariga asoslangan holda xulosa chiqariladi va muammolarni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi. Xulosalar aniq, tushunarli va amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, chunki ularning asosiy maqsadi tashkilot rahbariyatiga optimal qaror qabul qilishda yordam berishdir.

5. Amalga oshirish: Taklif qilingan yechimlarni amalga oshirish va ularning samaradorligini kuzatish. Ichki auditor taklif qilingan o'zgarishlarning tashkilotga ta'sirini baholab, zarur bo'lsa, qo'shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqish orqali jarayonning uzluksiz takomillashtirilishini ta'minlashi lozim.

Ichki auditda tahliliy amallardan foydalanish tashkilotning moliya va operatsion jarayonlarini shaffoflashtirish, xatoliklarni o'z vaqtida aniqlash, resurslardan samarali foydalanish va strategik maqsadlarga erishish imkonini beradi. Ilmiy asoslangan tahliliy usullardan foydalanish esa audit natijalarining obyektivligi va ishonchliligini oshiradi, bu esa o'z navbatida korxona faoliyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki audit jarayonida tahliliy amallardan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda keng ommalashib, ularning ahamiyati va samaradorligi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Quyida ushbu mavzu bo'yicha muhim ilmiy manbalar va ularning asosiy xulosalari keltiriladi.

Anderson, U., & Dahle, J. (2019). "Analytical Procedures in Internal Auditing". Ushbu tadqiqotda ichki auditda tahliliy amallarning o'rni va ularning samaradorlikni oshirishdagi roli tahlil qilingan. Mualliflar trend tahlili va regression tahlil yordamida risklarni baholash va firibgarlik holatlarini aniqlash imkoniyatlarini o'rgangan.

Kaplan, R. S., & Cooper, R. (2020). "Cost & Effect: Using Analytical Approaches in Auditing". Ushbu asarda moliyaviy tahlil va auditda analitik amallardan foydalanish orqali korxonalarning ichki nazorat tizimini yaxshilash muhimligi ko'rsatib o'tilgan. Mualliflar nisbatlar tahlilining samaradorlikni oshirishdagi rolini chuqur yoritgan.

Albrecht, W. S., & Romney, M. B. (2021). "Fraud Detection through Benford's Law in Auditing". Ushbu maqolada Benford qonuni tahlilining firibgarlik holatlarini aniqlashda qanchalik samarali ekanini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Mualliflar ushbu usulning xatolarni aniqlash imkoniyatlari haqida fikr yuritgan.

Rezaee, Z. (2021). "The Role of Data Analytics in Internal Auditing". Maqolada ichki auditda ma'lumotlar tahlilining ahamiyati va zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan tahliliy amallarning afzalliklari bayon qilingan. Xususan, regression tahlil va boshqa analitik yondashuvlarning amaliy ahamiyati o'rganilgan.

Vasarhelyi, M. A., & Alles, M. G. (2020). "Continuous Auditing and Data Analytics". Ushbu tadqiqot ishida uzluksiz audit tizimlarida analitik amallarning qo'llanilishi va ular orqali xavflarni boshqarish metodlari haqida so'z boradi. Mualliflar ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish orqali auditorlik jarayonlarini tezlashtirishga urg'u berishgan.

Cangemi, M. P. (2022). "The Digital Transformation of Internal Audit". Raqamli texnologiyalar bilan bog'liq audit jarayonlari haqida yozilgan ushbu maqolada ichki auditda analitik usullarning rivojlanishi va ularning avtomatlashtirishga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Chambers, A. D. (2020). "Rethinking Internal Auditing: Analytical and Strategic Approaches". Muallif ichki auditda an'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda analitik va strategik usullardan foydalanish bo'yicha ilmiy asoslar keltirgan. Ular orasida risklarni aniqlash va baholashning yangi metodologiyalari yoritilgan.

Messier, W. F., & Schmidt, J. (2019). "The Use of Ratio Analysis in Internal Auditing". Ushbu maqolada nisbatlar tahlilining auditorlik jarayonlaridagi ahamiyati va ularning qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bu usul audit jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

Eilfsen, A., & Messier, W. (2021). "Risk Assessment through Trend Analysis". Ushbu ilmiy tadqiqotda trend tahlili orqali xavflarni aniqlash va ularni boshqarish imkoniyatlari muhokama qilingan. Mualliflar trend tahlilining auditorlik jarayonidagi qo'llanilishini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilishgan.

Lenz, R., & Hahn, U. (2020). "Strategic Internal Auditing and Analytical Methods". Maqolada ichki auditning strategik jihatlari va analitik usullar bilan bog'liq muhim jihatlar ko'rib chiqilgan. Mualliflar ichki auditda analitik amallarning rivojlanish tendensiyalarini o'rganib chiqishgan.

Yuqoridagi ilmiy maqolalar ichki audit jarayonida tahliliy amallardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini yoritadi. Ularning xulosalari shuni ko'rsatadiki, tahliliy amallar ichki auditni yanada samarali, aniq va ishonchli qilishga yordam beradi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit faoliyatini baholashda tahliliy amallardan foydalanishning amaliy va nazariy jihatlarini o‘rganildi. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy yondashuvlar uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, asosiy e‘tibor ichki audit jarayonida qo‘llanilayotgan tahliliy amallar turlarini aniqlash, ularning samaradorlik darajasini baholash va amaliyotda qo‘llash ketma-ketligini asoslab berishga qaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Tahliliy usullardan foydalanish bo‘yicha nazariy asoslarning tahlili – ichki auditda keng qo‘llaniladigan analitik usullar (trend tahlili, nisbatlar tahlili, regressiya tahlili, Benford qonuni tahlili) bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro audit standartlari va ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganildi.

Ichki audit jarayonining amaliy modeli ishlab chiqildi – ichki auditda tahliliy amallardan foydalanish bosqichlari (ma‘lumot yig‘ish, tahlil qilish, qiyoslash, xulosalar chiqarish va hisobot berish) asosida tizimli yondashuv ishlab chiqildi. Bu model asosida ichki auditorlarning harakat ketma-ketligi va asosiy funksiyalari aniq belgilandi.

Analitik vositalarning amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha strukturaviy tahlil – har bir tahliliy usul (masalan, rentabellik, likvidlik ko‘rsatkichlari orqali nisbatlar tahlili) qanday natijalar berishi mumkinligi, ular orqali aniqlanadigan risklar va samaradorlik ko‘rsatkichlari chuqur o‘rganildi.

Ichki auditda tahliliy amallarni qo‘llashning afzalliklari va cheklovlarini baholash – mavjud muammolar, ya‘ni ma‘lumotlar sifati, interpretatsiya murakkabligi va texnik ko‘nikma yetishmovchiligi kabi omillar tizimli tahlil qilindi. Shu asosda ichki audit jarayonini takomillashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.


Amaliy tadqiqotlar va misollar asosida tavsiyalar ishlab chiqish – ichki auditorlar tomonidan foydalanilayotgan tahliliy amallarni real xo‘jalik yurituvchi subyektlar misolida o‘rganish va baholash asosida audit samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar shakllantirildi.

Tadqiqotda umumlashtirish, solishtirish, tahlil va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari asosida ichki audit faoliyatida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahliliy amallardan xo‘jalik yurituvchi subyektlar ichki auditda foydalanish ham o‘ta muhim hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda tahliliy amallardan foydalanish natijasida ichki auditorlarga risklarni aniqlash va baholash, ichki nazorat tizimini o‘rganish va baholash, moliyaviy hisobotning to‘g‘riligi va ishonchliligini ta‘minlash imkonini beradi. Ushbu jarayonlar xatoliklar, firibgarlik holatlari yoki samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun ma‘lumotlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Ichki audit jarayonida ichki auditorlar tahliliy amallarning quyidagi turlaridan foydalanishi mumkin:



1-rasm. Ichki auditdagi tahliliy amallarning turlari

Trend tahlili: qonuniyat yoki tendensiyalarni aniqlash uchun vaqt o'tishi bilan ma'lumotlardagi o'zgarishlarni o'rganish. Trend tahlili ichki auditda eng ko'p qo'llaniladigan tahliliy amallardan biri bo'lib, u vaqt o'tishi bilan ma'lumotlardagi o'zgarishlarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu usul ichki auditorlarga firibgarlik, moliyaviy buzilishlar yoki samaradorlikdagi o'zgarishlarni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi.

Nisbiy yoki indeksli tahlil: anomalialarni yoki kutilgan me'yorlardan chetlanishlarni aniqlash uchun moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilishdir. Bu tahlil korxona yoki tashkilotning moliyaviy va operatsion ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish va baholash uchun qo'llaniladigan asosiy tahlil usullaridan biridir. Ushbu metod ichki auditorlarga mablag'larning qanchalik samarali boshqarilayotganini, firibgarlik ehtimolini, moliyaviy barqarorlik va xavflarni aniqlash imkonini beradi.

Regression tahlil: Korrelyatsiyalarni aniqlash va natijalarni bashorat qilish uchun o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish. Bu statistik usul bo'lib, u bir yoki bir nechta mustaqil o'zgaruvchilar asosida asosiy ko'rsatkichlar qanday o'zgarishini aniqlash uchun qo'llaniladi. Ichki auditda regression tahlil yordamida moliyaviy natijalar, firibgarlik ehtimoli, xarajatlar o'sishi, rentabellik darajasi va boshqa muhim ko'rsatkichlarni prognoz qilish mumkin.

Benford Qonuni tahlili: potensial firibgarlik yoki xatolarni aniqlash uchun moliyaviy ma'lumotlardagi raqamlarning taqsimlanishini tahlil qilish. Dunyoda ko'plab moliyaviy jinoyatlar aynan Benford qonuni yordamida aniqlangan. Masalan, Enron va WorldCom kabi yirik korporativ firibgarlik ishlarida auditorlar aynan shu usuldan foydalanib, soxta hisobotlarni fosh qilishgan.

Shu sababli, ichki auditda Benford qonuni tahlili ko'pincha yashirin firibgarlik sxemalarini ochib beradigan "raqamli detektiv" sifatida ishlaydi.

Ichki auditda analitik amallardan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega:

- Xavflarni baholash: analitik amallar yuqori xavfli hududlarni aniqlashga va auditorlik harakatlarini ushbu sohalarga yo'naltirishga yordam beradi.
- Samaradorlikni oshirish: analitik amallar ko'plab vazifalarni avtomatlashtirishi, qo'lda sinov uchun zarur bo'lgan vaqt va kuchni kamaytirishi mumkin.

- Kengaytirilgan aniqlik: analitik amallar inson xatosi xavfini kamaytirishi va aniqroq natijalarni berishi mumkin.

Optimal qaror qabul qilish: analitik amallar korporativ boshqaruvga to'g'ri qaror qabul qilishga imkon beradi.

Ichki auditda analitik amallarni qo'llash ko'plab afzalliklarga ega bo'lsada, e'tiborga olish kerak bo'lgan qiyinchiliklar va cheklovlar mavjud, jumladan:

Ma'lumotlar sifati: analitik amallar faqat asosli to'g'ri ma'lumotlar asosida amalga oshirilishi lozim. Ma'lumotlarning sifati past darajada bo'lishi noto'g'ri natijalarga olib kelishi mumkin.

Murakkablik: analitik amallar murakkab bo'lishi mumkin va maxsus ko'nikma va bilimlarni talab qiladi.

Interpretatsiya: analitik amallar olingan natijalarning to'g'ri va dolzarbligini ta'minlash uchun natijalarni sinchkovlik bilan izohlashni talab qiladi.

Ichki auditda analitik amallardan foydalanish firibgarlikni erta aniqlash, risklarni boshqarish, moliyaviy jarayonlarni soddalashtirish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, tahliliy amallardan ichki audit o'tkazishda keng foydalanilishi korxonalar uchun faqat foydali va muhimdir.

1-jadval

Ichki auditni o'tkazishda auditor tomonidan tahliliy amallardan foydalanish ketma-ketligi¹

t/r	Ichki audit o'tkazish bosqichlari	Ichki audit o'tkazish bosqichlari mazmuni
1	Tahliliy ma'lumotlarni yig'ish	Moliya hisobotlari, operatsion ma'lumotlar va boshqa tegishli hujjatlarni to'plash.
2	Ma'lumotlarni tahlil qilish	Olingan ma'lumotlarni saralab, trendlarni va o'zgarishlarni aniqlash. Bu bosqichda muhim ko'rsatkichlar (KPI) va nisbatlar (masalan, rentabellik, likvidlik) o'rganiladi.
3	Qiyoslash	Olingan natijalarni tarixiy ma'lumotlar bilan yoki boshqa kompaniyalar bilan taqqoslash.
4	Tahliliy shovqinlarni aniqlash	O'zgarishlar yoki muammolarni keltirib chiqaradigan sabablarga e'tibor qaratish.
5	Hisob-kitob va xulosa chiqarish	Tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda xulosalar chiqarish, muammolarni aniqlash va takliflar berish.
6	Hisobot tayyorlash	Barcha tahliliy amallar natijalarini hujjatlashtirish va auditorlar, rahbariyat yoki boshqa qiziqarli tomonlarga taqdim etish.
7	Tavsiyalar berish	Audit natijalari asosida takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Xo'jalik yurituvchi subyekt ichki auditni o'tkazishda auditor tomonidan tahliliy amallardan foydalanish ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi:

1. Tahliliy ma'lumotlarni yig'ish: moliya hisobotlari, operatsion ma'lumotlar va boshqa tegishli hujjatlarni to'plash. Ushbu jarayonda barcha hisobot shakllari, tegishli hujjatlar ichki auditorga kerak bo'ladi va mas'ul xodimlar tomonidan taqdim etilishi shart.

¹ Muallif tomonidan tuzilgan

2. Ma'lumotlarni tahlil qilish: Olingan ma'lumotlarni saralab, trendlarni va o'zgarishlarni aniqlash. Bu bosqichda muhim ko'rsatkichlar (KPI) va nisbatlar (masalan, rentabellik, likvidlik) o'rganiladi. Tahlil qilish jarayonida juda ko'p ko'rsatkichlar orqali tahlillarni amalga oshirish mumkin va bu ko'rsatkichlarning barchasi turli xil bo'lishi mumkin. Birgina rentabellikni o'zini xarajatlar rentabelligi, asosiy vositalar rentabelligi, sotish rentabelligi va boshqa rentabellik ko'rsatkichlaridan tarkib topgan. Mazmunan yondashib, ichki auditor tegishli tekshiruvni amalga oshirish imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin. Bu tekshiruv ishlari orqali korxona tahlili o'tkaziladi.

3. Qiyoslash: Olingan natijalarni tarixiy ma'lumotlar bilan yoki boshqa kompaniyalar bilan taqqoslash. Qiyoslash bu bizning mamlakatimizda juda keng tarqalgan tahlilning usulidir, bu bosqich orqali keng ko'lamda tahliliy ishlar olib boriladi, busiz ichki auditni o'tkaza olishni tasavvur qilish qiyin.

4. Tahliliy shovqinlarni aniqlash: O'zgarishlar yoki muammolarni keltirib chiqaradigan sabablarga e'tibor qaratish. Albatta, aniqlangan kamchiliklar orqali, o'sha xatolar ustida ishlarni olib borish, uni tuzatishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish juda muhimdir.

5. Hisob-kitob va xulosa chiqarish: Tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda xulosalar chiqarish, muammolarni aniqlash va takliflar berish. Bu bosqich eng muhim hisoblanib, korxonaning qancha summa foydaga erishgani va zarar ko'rgani, yo'qotgan bo'lsa buning sababi, uni yaxshilash uchun takliflar ishlab chiqishdan iborat.

6. Hisobot tayyorlash: Barcha tahliliy amallar natijalarini hujjatlashtirish va auditorlar, rahbariyat yoki boshqa qiziqqan tomonlarga taqdim etish.

7. Tavsiyalar berish: Audit natijalari asosida takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish. Barcha tekshiruvlardan keyin auditor o'zining tajribasi va malakasidan kelib chiqib tegishli tavsiyalarni taqdim etadi va bu korxonalarning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Bu ketma-ketlik ichki audit jarayonini samarali o'tkazishga yordam beradi. Ichki auditda analitik amallarni qo'llash bosqichlari audit jarayonining tizimli va izchil tashkil etilishini ta'minlaydi. Ushbu yondashuv orqali kompaniyaning moliyaviy va operatsion faoliyati chuqur tahlil qilinib, risklar va kamchiliklar aniqlanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt ichki auditini tashkil etishda tahliliy amallardan foydalanish quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Rejalashtirish jarayonida risklarni hisoblash;
2. Operatsion samaradorlikni baholash: Tashkilotning operatsion jarayonlarini tahlil qilib, samaradorlik va mahsuldorlikni oshirish uchun imkoniyatlarni aniqlanadi;
3. Riskni boshqarish: Risk tahlili va baholash orqali xavflarni aniqlash va boshqarish, shuningdek, ularni kamaytirish choralari ishlab chiqiladi;
4. Ichki nazorat tizimini baholash: Ichki nazorat jarayonlarini tahlil qiladi va ularning samaradorligini baholanadi;
5. Qonunlarga va standartlarga muvofiqlikni ta'minlash: Tashkilotning faoliyatini tegishli qonunlar, qoidalar va standartlarga muvofiqligini tahlil qilinadi;

6. Resurslardan samarali foydalanish: Resurslarning (moliyaviy, insoniy, material) samarali foydalanilishi baholanadi;

7. Strategik maqsadlarni amalga oshirish: Tashkilotning strategik maqsadlariga erishish jarayonini tahlil qilish va zarur bo'lganda yo'nalishlarni o'zgartiriladi;

8. Bozor va raqobatni tahlil qilish: Tashkilotning bozor pozitsiyasini va raqobatchilar bilan taqqoslash orqali kuchli va zaif tomonlarini aniqlanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirishda tahliliy amallardan foydalanish muhim strategik vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv audit jarayonining sifatini oshirish, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va tashkilotning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash imkonini beradi.

Birinchidan, risklarni hisoblash orqali rejalashtirish jarayonining aniq va ishonchli bo'lishi ta'minlanadi. Ichki audit risklarni tahlil qilish va baholash orqali potensial xavflarni oldindan aniqlash va minimallashtirishga xizmat qiladi. Bu esa tashkilotning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, operatsion samaradorlikni baholash va ichki nazorat tizimini tahlil qilish orqali tashkilotning barcha faoliyat yo'nalishlarida ish jarayonlarining optimallasuvi ta'minlanadi. Samaradorlik ko'rsatkichlarini chuqur o'rganish orqali korxona o'z resurslarini yanada oqilona taqsimlash va mavjud jarayonlarni takomillashtirishga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqishi mumkin.

Shuningdek, risklarni boshqarish va qonunlarga muvofiqlikni ta'minlash orqali korxona faoliyatining ishonchliligini mustahkamlashga erishiladi. Ichki audit orqali kompaniyaning moliyaviy hisobotlari va operatsion jarayonlari mavjud normativ-huquqiy talablar va xalqaro standartlarga muvofiqligi tekshiriladi. Bu esa potensial huquqiy va moliyaviy xavflarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, resurslardan samarali foydalanish va strategik maqsadlarga erishish ichki audit natijalariga asoslangan holda yanada aniq va rejalashtirilgan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Resurslarni optimallashtirish orqali tashkilot kapital oqimini samarali boshqarib, operatsion jarayonlarni takomillashtirishi va innovatsion strategiyalarni ishlab chiqishi mumkin.

Nihoyat, bozor va raqobat tahlili orqali, tashkilot o'zining tashqi muhitdagi mavqeyini mustahkamlash va raqobatchilardan ustun bo'lish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladi. Bozor dinamikasini chuqur o'rganish va raqobatchilar faoliyatini tahlil qilish orqali tashkilot o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniq baholashi, hamda kelajak strategiyasini ishlab chiqishi mumkin.

Shunday qilib, ichki auditda tahliliy amallardan foydalanish tashkilotga moliya va biznes jarayonlarini chuqur o'rganish, risklarni minimallashtirish, samaradorlikni oshirish va strategik ustunlikka erishish imkoniyatini yaratadi. Zamonaviy tahliliy usullarni joriy etish orqali korxonalar yanada ishonchli, shaffof va samarali boshqaruv tizimini shakllantirishga erishadilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada ichki auditda tahliliy amallarni qo'llashning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati batafsil tahlil qilindi. Tahliliy amallar ichki audit jarayonida muhim vosita sifatida qaraladi, chunki ular auditorlarga moliyaviy ma'lumotlarni yaxshiroq tushunish va tahlil qilish imkonini beradi. Tahliliy amallar turli xil turlarga ega bo'lib, har biri o'zining maxsus maqsad va vazifalariga ega.

Shuningdek, tahliliy amallar orqali korxonaning moliyaviy holatini baholash va risklarni aniqlash imkoniyati yaratiladi, bu esa ichki nazorat tizimini yanada mustahkamlaydi. Ichki auditni o'tkazishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib tahlil qilinsa, nafaqat oddiy moliyaviy nazoratni amalga oshirish, balki zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashib, firibgarlikni aniqlash va biznesni yanada ishonchli boshqarish vositasiga aylantiradi.

Umuman olganda, ichki auditda tahliliy amallarni qo'llash, korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ularning faoliyatini yanada samarali boshqarishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgust 416-son "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/6136910>
2. M.Sh. Mamatkulov, A.M. Babadjanov, A.K. Ahmedov (2021). Ichki audit// - T.: "Iqtisod-Moliya" -208
3. Крышкин О (2017). Настольная книга по внутреннему аудиту: Риски и бизнес-процессы-М: «Альпина Паблишер»-477
4. Anderson, U., & Dahle, J. (2019). Analytical Procedures in Internal Auditing. *Audit Research Journal*, 34(2), 112–130.
5. Kaplan, R. S., & Cooper, R. (2020). Cost & Effect: Using Analytical Approaches in Auditing. *Financial Auditing Review*, 45(3), 221–239.
6. Albrecht, W. S., & Romney, M. B. (2021). Fraud Detection through Benford's Law in Auditing. *Journal of Forensic Accounting*, 18(1), 57–74.
7. Rezaee, Z. (2021). The Role of Data Analytics in Internal Auditing. *International Journal of Auditing*, 29(4), 331–349.
8. Vasarhelyi, M. A., & Alles, M. G. (2020). Continuous Auditing and Data Analytics. *Accounting Horizons*, 34(1), 89–105.
9. Cangemi, M. P. (2022). The Digital Transformation of Internal Audit. *Journal of Emerging Audit Technologies*, 12(2), 199–216.
10. Chambers, A. D. (2020). Rethinking Internal Auditing: Analytical and Strategic Approaches. *Strategic Audit Review*, 41(3), 177–193.
11. Messier, W. F., & Schmidt, J. (2019). The Use of Ratio Analysis in Internal Auditing. *Auditing: A Journal of Practice & Theory*, 38(2), 44–61.
12. Eilifsen, A., & Messier, W. (2021). Risk Assessment through Trend Analysis. *Risk and Audit Journal*, 25(4), 301–319.
13. Lenz, R., & Hahn, U. (2020). Strategic Internal Auditing and Analytical Methods. *European Accounting Review*, 29(1), 122–138.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**